

Qurilish sohasiga innovatsion texnologiyalar keng joriy etiladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-yanvar kuni qurilish sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami yil sayin kengaymoqda. Yangi uy-joylar, yirik zavodlar, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Tabiiyki, bunday katta hajmdagi ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun malakali quruvchilar va loyihachilar, barqaror tashkilotlar kerak.

Yig'ilishda qurilish sohasidagi muammo va kamchiliklar keskin tanqid qilindi. Masalan, mamlakatimizda 22 mingga yaqin qurilish-pudrat tashkiloti bo'lib, ularning aksariyatida ishchilar soni va kasb malakasi to'g'risida ma'lumot yuritilmaydi.

Hududlardagi barcha qurilishlar yagona buyurtmachi xizmati tashkilotlariga topshirib qo'yilgani ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir qilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribada qurilish xavfsizligi, sifati va natijasi nazorat qilinsa, bizda barcha kuch va resurslar jarayonni nazorat qilishga sarflanib, sifat ikkinchi o'ringa tushib qolgan.

Davlatimiz rahbari sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, uni zamonaviy asosda rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Loyiha institutlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, xorijiy tajriba asosida tenderlar o'tkazishning aniq mezonlarini ishlab chiqish, bu borada elektron tizimni eksperiment tariqasida Toshkent shahrida joriy etish bo'yicha topshiriq berildi.

Qurilish, Moliya, Adliya vazirliklari va boshqa mutasaddi tashkilotlarga joriy yil 1-iyulga qadar qurilish korxonalarini faoliyatini baholash reytingini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Ushbu reytingda ishchilar soni va malakasi, bajarilgan ishlar hajmi, soliq va kreditlarning o'z vaqtida to'lanishi kabi mezonlar o'z aksini topadi.

Shaharsozlik normalari va qoidalarini hamda yagona buyurtmachi xizmati tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Sohada axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastligi qayd etildi. Jumladan, loyihalarni yaratish, ekspertizadan o'tkazish, qurilishga ruxsat berish, qurilish-pudrat ishlarini nazorat qilish jarayonlari haligacha qog'ozda bajarilyapti. Investor va tadbirkorlar uchun qayerda nima qurish mumkinligi haqida ma'lumot beruvchi

geoinformatsion tizim yo'lga qo'yilmagan.

Shu bois yig'ilishda Qurilish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga tizimni to'liq raqamlashtirish bo'yicha joriy yilda amalga oshirishga oid "yo'l xaritasi" ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Sohada texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinmayotgani, "risk-analiz" tizimi va nazorat yo'qligi oqibatida baxtsiz hodisalar yuz berayotgani qayd etildi. Tegishli vazirlik va idoralarga qurilish sohasida davlat nazoratini butunlay yangicha asosda tashkil etish, mehnat muhofazasini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari qurilish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimi bugungi kun talabiga javob bermasligini ta'kidladi.

Mehnat vazirligi, Qurilish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qurilish sohasida o'rta bo'g'in mutaxassislari va ishchi kasblar klassifikatorini joriy qilish hamda unga muvofiq kollejlarda quruvchilar tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Sohaga oid ta'lim dasturlarini yuqori texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida yangidan ishlab chiqish, bo'lajak kadrlarni zamonaviy loyihalash va dasturiy ta'minot, xususan, BIM (Building Information Modeling) texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish lozimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddi rahbarlar hisobot berdi, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'ZA